

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: № *BD* 601101001.1.09

2024-yil "___" avgust

XALQ PEDAGOGIKASI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000	–	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000	–	Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	60110100	–	Pedagogika va psixologiya

Termiz – 2024

Fan/modul kodi XalPed208	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 8	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim(soat)	Jami yuklama (soat)
	Xalq pedagogikasi	120	120	240
Fanning mazmuni				
<p>Ushbu o'quv dasturi bakalavr: 60110100-Pedagogika va psixologiya talim yo'nalishi talabalarining o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlari, unga qo'yiladigan talablar asosida tuzilgan bo'lib, "Xalq pedagogikasi" fanidan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.</p> <p>Ushbu dastur xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jaravonga tadbqiq etish, xalq pedagogikasida oila va oilaviv tarbiyaning aks etishi, xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, xalq pedagogikasida va o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi hamda xalq ogzaki ijodida dostonlar, milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlar, diniy ta'limotlar, xalq amaliy san'ati shuningdek o'zbek xalqining muomala madaniyati, axloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalarini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyatini o'z ichiga qamrab oladi.</p>				
O'quv fanining maqsadi va vazifalari				
2.	<p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tanishtirish hamda bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarni xalq pedagogikasi manbalaridan foydalana olishga o'rgatish;</p> <ul style="list-style-type: none"> -xalq pedagogikasi manbalari asosida yoshlarni tarbiyalashga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish: -xalq pedagogikasi xalq ta'limining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi va undan hozirgi zamon sharoitlarida qanday foydalanish yo'llarini taklif etadi, xalq an'alarini tabiiy ravishda ko'p asrlik taraqqiyotga asoslangan etnik-elatlik guruhlari tajribalarini to'playdi va tadqiq qiladi. -xalq pedagogikasining mavzu sohasi o'zgarimaydi: ijtimoiy o'z-o'zini anglash harakatiga taaluqli ijtimoiy shartlar o'zgarishiga bog'liq ravishda vazifalar aniqlanadi. -xalq pedagogikasi ijtimoiy-siyosiy ta'sir jarayonini o'rganadi, bu jarayon asnosida ijtimoiy qoidalar, qadriyatlar, tajribalarni o'zlashtiradi, shaxs rivojlanadi, bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi diniy ta'limotlar, ertaklar dostonlar, maqol va matallar, o'yinchoqlarda, oilaviy va ommaviy turlarida, xalq an'analri hamda falsafiy-axloqiy, tarbiyaviy fikr va qarashlar haqidagi xalq bilimlarini to'playdi va bir tizimga soladi. 			

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-MODUL. XALQ PEDAGOGIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI

1-mavzu. Xalq pedagogikasi fanining maqsadi, vazifasi va manbalari.

Xalq pedagogikasi fanining maqsadi va vazifalari. Xalq pedagogikasi fanining tadqiqot ob'ektlari. Xalq pedagogikasining inson kamolotida tutgan o'rni. Xalq pedagogikasining asosiy manbalari. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari.

2-Mavzu: Xalq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari.

Etnopedagogikaning rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos hususiyatlari. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ta'lim-tarbiya. O'rta asrlarda ta'lim va tarbiya. Mustaqil milliy ta'lim.

3-mavzu: Xalq pedagogikasida bolalarni tarbiyalashning metod va vositalari.

Xalq pedagogikasida farzand tarbiyalashning metod, usul va vositalari. Xalq pedagogikasining tarbiya vositalari. Xalq pedagogikasida tushuntirish, namuna ko'rsatish, ogohlantirish, iltimos qilish, koyish metodlaridan foydalanish yo'llari.

4-mavzu. Xalq pedagogikasi va O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari.

Yangi O'zbekistonda xalq pedagogikasini o'rganilishining ahamiyati. Muhammad al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniyning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning xalq pedagogikasiga oid qarashlari. Yusuf Xos Xojib va Ahmad Yassaviy tarbiya haqida. Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiyning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari.

5-mavzu. Xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasining muhim manbai sifatida.

O'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xosligi. Afsona, asotir va rivoyatlar haqida tushuncha. Alla, ertak, maqol, tez aytish va topishmoqlarning bolalar tarbiyasidagi o'rni. Naql, latifa, lof xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati. Terma, matal, doston, askiya va aytishuvlar haqida tushuncha.

6-mavzu. Xalq pedagogikasida milliy urf-odat, an'ana, udum va marosimlar.

Milliy urf-odat va an'analar. Oilaviy va tarbiyaviy an'analar. Udum va marosimlar haqida tushuncha. Marosimlarning o'ziga xos xususiyatlari.

7-mavzu. Xalq o'yinlari, o'yinchoqlari va bayramlar tarbiya vositasi

sifatida.

Xalq o'yinlari va o'yinchoqlari haqida tushuncha - Xalq o'yinlari va o'yinchoqlarining o'ziga xosligi. Davlat, diniy va xalq bayramlari.

8-mavzu. Milliy va jahon tarbiya konsepsiyasi.

O'zbekistonning "Uzliksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi". Jahon tarbiya konsepsiyalari. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida maqsadli, uzluksiz ma'naviy tarbiyaning tutgan o'rni. Yaponiyada fuqaroni tarbiyalash tizimi. ("axloqiy tarbiya" tizimi "xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim", "davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat", "fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash"). Xitoyda Konfutsiylik axloqining besh asosiy ustuni.

II-MODUL. XALQ PEDAGOGIKASI YOSH AVLOD TARBIYASI HAQIDAGI BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALAR IN'IKOSI.

9-mavzu: Oila tarbiyasining xalq pedagogikasida aks etishi.

Oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Xalq pedagogikasida oila ma'naviyati. Sevgi va oilaviy munosabatlar. Barkamol shaxs tarbiyasida oilaning muhim ahamiyati. O'zbek xalq pedagogikasida oila va oilaviy munosabatlar.

10-mavzu: Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlarning ahamiyati.

Islom dinining paydo bo'lishi. Hadis ilmi va uning namoyondalari. Diniy bag'rikenglik. Diniy adabiyotlar pedagogik fikrlar manbai sifatida. Diniy fanatizm, fundamentalizm, terrorizm diniy savodsizlik oqibati.

11-mavzu. Qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.

Turk xalqlarining yozma yodgorliklari. Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi. "Avesto"da ta'lim-tarbiyani aks etishi.

III-MODUL. O'ZBEK MILLIY MADANIYATI VA MA'NAVIYATINING XALQ PEDAGOGIKASIDA IFODALANISHI

12-mavzu: Xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, milliy musiqa, qo'shiqchilik, raqs hamda milliy teatrning tarbiyaviy ahamiyati.

Xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilik. Milliy me'morchilik, milliy musiqa va qo'shiqlarning o'ziga xosligi. Milliy teatrlar xalq pedagogikasida estetik tarbiya omili sifatida.

13-mavzu. O'zbek xalqining axloqiy me'yorlari, mehmondo'stligi, muomala madaniyati, turmush kechirish tartib-qoidalarining xalq pedagogikasida aks etishi.

O'zbek xalqining axloqiy me'yorlari. O'zbek xalqining mehmondo'stligi, muomala madaniyati, turmush kechirish tartib-qoidalarining xalq pedagogikasida aks etishi. Farzand tarbiyasida mahallaning o'rni. Xalq pedagogikasida insoniy fazilatlar (sahiylik, xushmuomalalik, oliyjanoblik, halollik, insonparvarlik). Milliy fazilatlarni bola tarbiyasiga singdirishda xalq pedagogikasining ahamiyati.

14-mavzu. Xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, xalq tabobati va sog'lom turmush tarzining ifbdalanishi.

Xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari. Tabiat bilan bog'liq mavsumiy bayramlar, marosim va qadriyatlar. Sog'lom turmush tarziga oid xalq tajriba maktabi. Xalq og'zaki ijodi janrlarida xalq tabobati, tabiatga oqilona munosabat va sog'lom turmush tarzi masalalari.

155-mavzu. Mustaqillik davrida «O'zbek xalq og'zaki ijodi»ni o'rganishning yetakchi masalalari. Folklor atamasi, yetakchi xususiyatlari, tur va janrlari.

Mustaqillik davrida Xalq og'zaki ijodi o'rganilishi masalalari. Folklor tushunchasi. Folklor xususiyatlari tur va janrlari.

16-mavzu. Pedagogik aksiologiya va xalq pedagogikasining aloqadorligi. Pedagogik aksiologiya haqida tushuncha. Pedagogik aksiologiyaning mazmuni va mohiyati. Qadriyat g'oyasi va uning umumiy aksiologiyadagi rivoji. Qadriyat g'oyasi va uning milliy falsafadagi rivoji. Milliy pedagogikamizda qadriyatli tasavvurlarning rivojlanishi.

17-mavzu. Xalq dostonlari va ertaklari.

Xalq dostonlari haqida tushuncha. Qahramonlik dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Romanik dostonlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Kitobiy dostonlarning xalq ma'naviy hayotidagi o'rni. Xalq ertaklari va uning tarbiyaviy ahamiyati.

18-mavzu. Mif va uning mohiyati. Afsona, asotir, rivoyat va naqlarning tarbiyaviy ahamiyati.

Mif va mifologik dunyoqarash haqida tushuncha. Xalq afsona va asotirlarining tarbiyaviy ahamiyati. Xalq rivoyatlarida tarbiya masalalari.

Naqlarning o'ziga xos xususiyatlari.

19-mavzu. Alla va xalq qo'shiqlarining mazmun mohiyati.

Alla haqida tushuncha. Xalq ertaklari haqida tushuncha. Xalq ertaklarining turlari. O'zbek xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati. Xalq qo'shiqlari va lirika atamalari haqida tushuncha. Xalq qo'shiqlarining turlari. Xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati.

20-mavzu. Xalq maqollari va topishmoqlari.

Xalq maqollari va topishmoq haqida tushuncha. Xalq maqollarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlar aqliy tarbiyani shakllantirish sifatida.

21-mavzu. Tez aytish, latifa, askiya, aytishuv va loflarning o'ziga xos xususiyatlari.

Tez aytishning o'ziga xosligi. Latifa haqida tushuncha. Askiya va aytishuv. Lof va uning inson hayotidagi o'rni.

22-mavzu. Xalq pedagogikasida ustoz - shogird munosabatlari.

Ustoz-shogirt tushunchasi. Xalq pedagogikasi manbalarida ustoz - shogird munosabatlarini ifodalaniishi. Pedagogik muloqot odobi.

23-mavzu. Xalq pedagogikasida tabiatni asrashning mazmuni va mohiyati.

Ekologik tarbiya. Xalq pedagogikasida tabiatni muhofaza qilish va sog'lom turmush masalalari. Tabiatni asrash xalqaro tashkiloti. O'zbekistonda tabiatni asrash borasidagi qaror va farmonlar.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalq pedagogikasi fanining maqsadi, vazifasi va manbalari.
2. Xalq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari.
3. Xalq pedagogikasida bolalarni tarbiyalashning metod va vositalari.
4. Xalq pedagogikasi va O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari.
5. Xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasining muhim manbai sifatida.
6. Xalq pedagogikasida milliy urf-odat, an'ana, udum va marosimlar.
7. Xalq o'yinlari, o'yinchoqlari va bayramlar tarbiya vositasi sifatida.
8. Milliy va jahon tarbiya konsepsiyasi.
9. Oila tarbiyasining xalq pedagogikasida aks etishi.
10. Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlarning ahamiyati.
11. Qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.
12. Xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, milliy musiqa, qo'shiqchilik, raqs hamda milliy teatrning tarbiyaviy ahamiyati.

13. O'zbek xalqining axloqiy me'yorlari, mehmondo'stligi, muomala madaniyati, turmush kechirish tartib-qoidalarining xalq pedagogikasida aks etishi.

14. Xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, xalq tabobati va sog'lom turmush tarzining iftdalanishi.

15. Mustaqillik davrida «O'zbek xalq og'zaki ijodi»ni o'rganishning yetakchi masalalari. Folklor atamasi, yetakchi xususiyatlari, tur va janrlari.

16. Pedagogik aksiologiya va xalq pedagogikasining aloqadorligi.

17. Xalq dostonlari va ertaklari.

18. Mif va uning mohiyati. Afsona, asotir, rivoyat va naqlarning tarbiyaviy ahamiyati.

19. Alla va xalq qo'shiqlarining mazmun mohiyati.

20. Xalq maqollari va topishmoqlari.

21. Tez aytish, latifa, askiya, aytishuv va loflarning o'ziga xos xususiyatlari.

22. Xalq pedagogikasida ustoz - shogird munosabatlari.

23. Xalq pedagogikasida tabiatni asrashning mazmuni va mohiyati.

IV. Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish.

Talabalarning mustaqil ta'limi har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi.

Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- test tayyorlash;

- tarqatma tayyorlash;

- og'zaki savol javob;

- amaliy chiqishlar.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Xalq pedagogikasi fan sifatida.

2. Xalq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari

3. Xalq pedagogikasida tarbiya uslublari

4. Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.

5. Buyuk allomalarimiz ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar.

6. Xalq qo'shiqlarining o'ziga xos xususiyatlari

7. Xalq o'yinlari va milliy o'yinchoqlarining o'ziga xos xususiyatlari.

8. O'zbek xalqining muomala madaniyati.

9. O'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyatlari

10. Milliy urf-odatlar, an'analar haqida tushuncha.
11. Xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati.
12. O'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyatlari.
13. O'rta Osiyo mutafakkirlarining hikmatli so'zlari.
14. Dostonlar xalq pedagogikasining tarkibiy qismi sifatida.
15. Xalq pedagogikasida milliy urf-odat, an'ana va udumlar.
16. Milliy marosimlar haqida tushuncha.
17. Oila tarbiyasining xalq pedagogikasida aks etishi.
18. O'zbek xalqining axloqiy me'yorlari.
19. Ta'lim-tarbiya jarayonida diniy ta'limotlarning o'rni.
20. Qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim tarbiya masalalari.
21. Xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati (hunarmandchilik, milliy musiqa, qo'shiq).
22. O'zbek xalqining madaniy hayoti. (axloqiy me'yor, mehmondo'stlik, muomala).
23. Xalq pedagogikasida atrof-muhit va tabiatni asrashga oid azaliy qadriyatlar.
24. Milliy qadriyatlar va ularning mazmun mohiyati.
25. Oilaviy qadriyatlarning shaxs tarbiyasiga ta'siri.
26. Xalq dostonlari haqida tushuncha.
27. Afsonalarning tarbiyaviy ahamiyati.
28. Rivoyatlarning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.
29. Xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati.
30. Xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati.
31. Bola tarbiyasida allaning tutgan o'rni.
32. Milliy raqs, nafosat tarbiyasi sifatida.
33. Topishmoqlarning aqliy tarbiyani rivojlantirishdagi o'rni.
34. Tez aytishlarning o'ziga xos xususiyatlari.
35. Askiya, latifa va loflarining xalq pedagogikasida aks etishi.
36. Xalq maqollarining tarbiyaviy ahamiyati
37. Marosimlar va ularning xalq hayotidagi o'rni ahamiyati
38. Buyuk mutafakkirlarimizning qarashlarida ustoz - shogird masalalari.
39. Xalq pedagogikasida milliy fazilatlar tarannumi.
40. Xalq pedagogikasida atrof-muhit va tabiatni asrashga oid azaliy qadriyatlar.

V. Fanni o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

3. O'zbek xalq pedagogikasining maqsadi, vazifalari, mazmun mohiyati, xalq pedagogiasi namunalaridan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish yo'llari, o'zbek xalqining tarixiy va boy madaniyati, xalq pedagogikasining pedagogik fanlar tizimidagi o'rni, o'zbek xalqining milliy madaniyati va ma'naviyatining o'ziga xos jihatlari va tarbiyaviy ahamiyatlari haqida *tasavvurga ega bo'lishi; (bilim);*

- xalq pedagogikasi manbalari va ularda aks etgan o'zbek xalqining

	<p>ta'lim-tarbiya haqidagi tajribalarini, xalq pedagogikasining didaktik va itarbiyaviy imkoniyatlarini, xalq pedagogikasida o'qitish metodlarini, xalq pedagogikasi va O'rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining pedagogik g'oyalaridagi uyg'unlikni, xalq og'zaki ijodining xalq pedagogikasidagi o'rmini, xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, bayramlar, milliy o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyatini, oila tarbiyasi va ma'naviyatining xalq pedagogikasi manbalarida ifodalanishini, xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalarini, diniy ta'limotlarning xalq pedagogikasidagi o'rmini, xalq pedagogikasida o'zbek milliy san'ati, madaniyati va ma'naviyatining ifodalanishini, o'zbek xalqining axloqiy me'yorlari, milliy tarbiya madaniyatini, xalq tarbiya nazariyasida tabiatni muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzi to'g'risida ma'lumotlarni o'rganishga oid xususiyatlarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Xalq pedagogikasining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiiq etish yo'llarini aniqlash, erkin fikrlovchi barkamol shaxsni shakllantirishda xalq pedagogikasi manbalaridan foydalana olish, fan bo'yicha turli adabiyotlarni o'qib o'rganish va tahlil qilish, mustaqil izlanish va olingan ma'lumotlarni ilmiy qiyoslay olish mahoratlarini shakllantira olish <i>malakasiga ega ega bo'lishi kerak (malaka).</i>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - interfaol metodlar; - seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma yoki test topshiriqlarini topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi (o'quv qo'llanma). - T., 2011 y. 2.T.Mirzayev, O.Safarov, "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi". T. "Aloqachi" 2008-y. 3.Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi (darslik). - T., 2005 y. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi

- Prezidentining nutqi //Xalq so'zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar №11.
- 2.Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon. demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "Uzbekiston" 2016.
- 3.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga kuramiz. "Uzbekiston" 2017.
- 4.O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi bo'yicha xarakteristik strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
- 5.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -engilmas kuch. - T., 2008 y.
- 5.Hoshimov K., S.Ochil. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" (o'quv qo'llanma). - T., 1995 y.
- 6.Munavvarov A. Oila pedagogikasi. (o'quv qo'llanma). -T., 1994 y.
- 7.G'aniyev J.R. Xorijda ta'lim (o'quv qo'llanma). - T., 1995.

Axborot manbaalari:

- 1.<http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
- 2.<http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.
- 3.<http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi davlat portali.
- 4.www.pedagog.uz
- 5.www.Ziyonet.uz
- 6.www.edu.Uz

7. Mazkur o'quv dastur Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasining 2024-yil "24" 08 dagi 1 -sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.
- Ushbu o'quv dastur Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar" fakulteti kengashining 2024-yil "28" 08 dagi 1 -sonli majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan.
- Ushbu o'quv dastur Termiz iqtisodiyot va servis universiteti kengashining 2024-yil "30" 08 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:

8. Avliyaqulov T.X - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
- Xolov O.Ch. - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasini katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
9. **Taqrizchilar:**
- Karimova B.X. Termiz davlat universiteti "Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasini katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
- Jumayeva G.T. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasini katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.